e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/dcbmyy67

TASAVVUFIY AGIOGRAFIYALARDA IJODIY VORISIYLIK DIALEKTIKASI: QABUL QILISH, TRANSFORMATSIYA VA RIVOJLANTIRISH

Karayev Umed
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi, (PhD).
e-mail: u.karayev74@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0003-1935-6771

Annotatsiya.
Maqolada Sulamiy, Ansoriy, Jomiy va Navoiy asarlari misolida tasavvufiy tazkirachilik an'analaridagi ijodiy vorisiylik masalasi tadqiq etiladi. Qiyosiy tahlil asosida adabiy merosni qabul qilish, qayta ishlash va rivojlantirishning asosiy shakllari yoritiladi. Navoiy tazkirasida mavjud manbalarni saralash, ma'lumotlarni ixchamlashtirish hamda asarni yangi biografik ma'lumotlar bilan boyitish jarayonlari ijodiy individuallikning muhim ko'rinishlari sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, tasavvufiy tazkirachilikda adabiy an'ana va ijodiy yangilanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ijodiy vorisiylik, tasavvufiy tazkirachilik, Sulamiy, Ansoriy, Jomiy, Navoiy, adabiy an'ana, tasavvuf tarixi, Hirot adabiy muhiti.

ДИАЛЕКТИКА ТВОРЧЕСКОЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В СУФИЙСКОЙ АГИОГРАФИИ: ВОСПРИЯТИЕ, ТРАНСФОРМАЦИЯ И РАЗВИТИЕ

Караев Умед
Центр педагогического мастерства Сурхандарьинской области, (PhD).

Аннотация.
В статье исследуется проблема творческой преемственности в традиции суфийских тазкире на примере произведений Сулами, Ансари, Джами и Навои. На основе сравнительного анализа раскрываются основные формы восприятия, переработки и развития литературного наследия. Отбор источников, сокращение и систематизация сведений, а также обогащение произведения новыми биографическими данными в тазкире Навои рассматриваются как важные проявления творческой индивидуальности автора. Кроме того, раскрывается взаимосвязь литературной традиции и творческого обновления в суфийской агиографической литературе.

Ключевые слова: творческая преемственность, суфийская традиция тазкире, Сулами, Ансари, Джами, Навои, литературная традиция, история суфизма, литературная среда Герата.

THE DIALECTICS OF CREATIVE CONTINUITY IN SUFI HAGIOGRAPHY: RECEPTION, TRANSFORMATION, AND DEVELOPMENT

Karayev Umed
Surkhandarya Regional Center for Pedagogical Excellence, (PhD).

Abstract.
This article examines creative continuity in the tradition of Sufi biographical literature (tazkira) through the works of al-Sulami, al-Ansari, Jami, and Navoi. Using comparative analysis, the study explores the principal forms of receiving, reworking, and developing literary heritage. In Navoi's tazkira, the selection of sources, condensation and organization of information, and incorporation of new biographical details are interpreted as significant manifestations of the author's creative individuality. The article also highlights the relationship between literary tradition and creative innovation in Sufi hagiographical literature.

Keywords: creative continuity, Sufi tazkira tradition, al-Sulami, al-Ansari, Jami, Navoi, literary tradition, history of Sufism, Herat literary environment.

Kirish. Ijodiy vorisiylik har qanday adabiy an'ananing yashovchanligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Rus adabiyotshunosligida D. Blagoy adabiy vorisiylikning dialektik xususiyatini ta'kidlab, unda o'zlashtirish va inkor qilish, davom ettirish va tanqidiy qayta ko'rib chiqish jarayonlari o'zaro uyg'unlashishini qayd etadi. Uning fikricha, har bir yangi avlod salaflar merosini yangi tarixiy sharoit talablari asosida qayta baholaydi va talqin qiladi [1]. A. Bushmin esa adabiy vorisiylik samarasini keyingi ijodkorning avvalgi ijodkorga o'xshashligi bilangina emas, balki ular o'rtasidagi farqlar bilan ham bog'laydi. Saqlanib qolgan o'xshashliklar esa turli ijodiy individualliklarga xos ayrim umumiy jihatlarning davomiyligini ifodalaydi [2; 97-b.].

XV asr Hirot adabiy muhiti vorisiylik munosabatlarining turli ko'rinishlari namoyon bo'lgan noyob adabiy makondir. Bu davrda tazkirachilik, tarixnavislik, naziranavislik, tarjimachilik va didaktik nasr sohalarida salmoqli asarlar yaratilgan. Tasavvuf ahliga bag'ishlangan tazkiralar, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratu-sh-shuaro»si, Alisher

ISSN 3060-5059 (Online)

Navoiyning «Majolisu-n-nafois»i kabi adabiy tazkiralar, Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asari, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning «Xamsa»lari, Farididdin Attorning «Mantiqut-tayr»i asosida yaratilgan Navoiyning «Lisonu-t-tayr» dostoni, shuningdek, «Bahoriston» va «Mahbubu-l-qulub» kabi axloqiy-didaktik asarlar vorisiylik munosabatlarini o‘rganish uchun boy material beradi.

Ushbu geografik hududda shakllangan vorisiylik munosabatlari XV asr Hirot adabiy muhiti vakillarining o‘zlaridan oldingi ijodkorlarga munosabatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa ijodkorlar o‘zlaridan avvalgi adabiy-ma’naviy meros vakillariga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo‘lganlar. Jumladan, Alisher Navoiyning Farididdin Attor ijodiga munosabati ijodiy vorisiylikning yorqin namunasidir. Shoir Attorga bo‘lgan ehtiromini quyidagi mashhur bayt orqali ifoda etadi:

Men demonkim, ul — otodur, men — o‘g‘ul,
Ul — shahi oliysifot, men — banda, qul [3].

Bu yerda «ota» va «o‘g‘ul» obrazlari orqali ijodiy vorisiylikning ma’naviy mohiyati ifoda etilgan. Navoiy o‘zini Attorning ma’naviy merosini davom ettiruvchi voris sifatida ko‘rsatar ekan, adabiy an’ananing uzluksizligi va avlodlar o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Shu jihatdan, mazkur bayt Sharq adabiyotida vorisiylikning faqat ta’sir yoki taqlid emas, balki merosni qabul qilish, uni qayta talqin etish va yangi sharoitda davom ettirishdan iborat ijodiy jarayon ekanini anglatadi. Tasavvufiy tazkirachilik an’anasining Sulamiydan Navoiygacha bo‘lgan taraqqiyoti ham aynan shu jarayonning yorqin namunasidir.

Yuqorida qayd etilgan bo‘shliqlarni inobatga olgan holda, mazkur maqolaning maqsadi Sulamiydan Navoiygacha bo‘lgan tasavvufiy tazkirachilik an’anasida ijodiy vorisiylikning namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash hamda merosni qabul qilish, qayta ishlash va rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Sulamiy, Ansoriy, Jomiy va Navoiy asarlari o‘rtasidagi ijodiy vorisiylik zanjirini aniqlash;
2. Har bir muallifning manbani qabul qilish, qayta ishlash va rivojlantirish jarayonida qo‘llagan usullarini tahlil qilish;
3. Diniy peshvolarni tasavvufiy tazkiralarga kiritish an’anasining genealogik va mafkuraviy ahamiyatini ko‘rsatish;
4. Olingan natijalar asosida tasavvufiy tazkirachilik an’anasida merosni qabul qilish, qayta ishlash va rivojlantirish bosqichlarining xususiyatlarini yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzu bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, tasavvufiy tazkirachilik an’anasining ayrim bosqichlari (xususan, Sulamiy–Ansoriy–Jomiy zanjiri) sharqshunoslik adabiyotida yaxshi yoritilgan. J. Mujaddadiyning tazkirachilik janriga bag‘ishlangan monografik tadqiqoti [4] bu boradagi eng tizimli manbalardan biri hisoblanadi. Unda «Tabaqot» janrining as-Sulamiydan Jomiygacha bo‘lgan evolyutsiyasi statistik va matniy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, M. S. Mavloiyning Ansoriy asariga ilova qilgan manbashunoslik indeksi [5] va eronlik tilshunoslar tomonidan Ansoriy asari tili bo‘yicha olib borilgan tadqiqot [6] muhim yordamchi manbalar vazifasini o‘taydi.

Biroq zanjirning so‘nggi, turkiy tildagi bo‘g‘ini — Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» asariga kelganda, vaziyat ancha boshqacha. E. Ochilov o‘zbek tarjimashunosligida mazkur asarning «Nafahotu-l-uns»ga qiyosan yetarlicha o‘rganilmaganini alohida ta’kidlab, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning nihoyatda dolzarbligini qayd etgan edi [7]. N. Ramazonovning «Nasoyim»ning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotida esa Jomiy asari qiyosiy tahlil uchun bevosita va tizimli ravishda jalb qilinmagan, mulohazalar asosan «Nasoyimu-l-muhabbat» materiali asosida yuritilgan [8]. Demak, mavjud adabiyotlarda ikkita muhim bo‘shliq ko‘zga tashlanadi: birinchidan, Jomiy va Navoiy matnlarining tizimli qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan; ikkinchidan, tazkirachilik an’anasidagi vorisiylik hodisasi adabiy nazariya (xususan, vorisiylik va ta’sir nazariyasi) nuqtai nazaridan konseptuallashtirilmagan, ya’ni tadqiqotlar ko‘proq manbashunoslik darajasida qolib ketgan.

Tadqiqot obyekti sifatida quyidagi to‘rtta asar olindi:

- Abuabdurahmon as-Sulamiyning «Tabaqotu-s-so‘fiya» asari (arab tilida, taxminan X asr, 103 ta tarjimai hol, 105 nafar so‘fiy) [4];
- Abdulloh Ansoriy Hiraviyning «Tabaqotu-s-so‘fiya» asari (Hirot lahjasida, XI asr, 276 nafar tariqat ahli) [5];
- Abdurahmon Jomiyning «Nafahotu-l-uns min hazaroti-l-quds» asari (fors tilida, XV asr, 618 nafar) [9];
- Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimu-l-futuvvat» asari (turkiy tilda, XV asr, 770 nafar) [10].

Qo‘shimcha ravishda tahlilga Farididdin Attorning «Tazkiratu-l-avliyo»si [11], Abulqosim Qushayriyning «Ar-Risola»si, Ali ibn Usmon Hujviriyning «Kashf al-mahjub»i [12] va Abu Nuaym al-Isfahoniyning «Hilyat al-avliyo va tabaqot al-asfiyo»si jalb qilindi. Bular Jomiy va Navoiy asarlari uchun ikkinchi darajali, to‘ldiruvchi manbalar sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqotning uslubiy negizini kirish qismida ko‘rsatilgan adabiy vorisiylik nazariyasi (D. Blagoy [1], A. Bushmin [2], A. V. Podobriy [13]) tashkil etadi. Bu nazariya vorisiylikni «nima saqlandi — nima o‘zgardi — nima qo‘shildi» mezonlari asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, N. Konradning adabiy-madaniy an’analarning avloddan avlodga o‘tishida vositachilik qiluvchi shaxslar, ijodiy muhitlar va matnlarning roli haqidagi qarashlari [14] nazariy tayanch sifatida qabul qilindi. Bu yondashuv tasavvufiy merosning muayyan asarlar orqali keyingi davrlarga ko‘chishi va yangi tarixiy-madaniy muhitda qayta talqin qilinishi mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Sulamiy, Ansoriy, Jomiy va Navoiy asarlari yagona vorisiylik zanjirining turli bo‘g‘inlari sifatida qaraldi.

Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: (a) har bir asarning asosiy manbasi va manbalar tizimi aniqlandi; (b) manbadan asarga o‘tgan ma’lumotning saqlanish va o‘zgarish darajasi (so‘zma-so‘z tarjima, qisqartirilgan tarjima, erkin bayon, to‘liq yangi matn) aniqlandi; (v) manba materialining kompozitsion, mazmuniy va uslubiy jihatdan ijodiy qayta ishlanish shakllari belgilab olindi; (g) yuqorida ko‘rsatilgan nazariy modellar asosida har bir muallifning ijodiy pozitsiyasi ta’riflandi. Tanlangan ayrim tarjimai hol namunalari asosida manbaga munosabat va qayta ishlash darajasi (so‘zma-so‘z, qisqartirilgan, erkin) belgilandi. Metodologik jihatdan mazkur tanlov tasodifiy bo‘lib, to‘liq statistik xulosa chiqarish uchun emas, balki dastlabki tendensiyalarni aniqlash maqsadida amalga oshirildi.

Maqolani nashrga tayyorlashda sun’iy intellekt vositasi — ChatGPTdan kirill yozuvidagi o‘zbekcha matnni lotin yozuviga o‘tkazish, annotatsiyalarni ixchamlashtirish, bo‘limlarni jurnal tuzilishiga mos tartiblash va til-uslubiy tahrir qilish uchun foydalanildi. Bu yordam manba matnlari va iqtiboslarni asl nashrlar bilan tekshirish o‘rnini bosmaydi.

MUHOKAMA

1. SULAMIY VA TASAVVUFIY TAZKIRACHILIK AN’ANASINING SHAKLLANISHI

Abuabdurahmon as-Sulamiy (taxminan 936 yoki 942-yilda Nishopurda tug‘ilib, 1012 yoki 1021-yilda shu yerda vafot etgan) tasavvufiy tazkirachilik an’anasining shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Shibliyning muridi Shayx Abulqosim Nasrobodiydan xirqa kiygan, Abusaid Abulxayrga o‘zi xirqa kiygizgan va tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan bu olimning «Tabaqotu-s-so‘fiya» asari mazkur an’ananing ilk yirik namunalaridan hisoblanadi.

J. Mujaddadiyning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, Sulamiyning asl arab tilidagi «Tabaqotu-s-so‘fiya» asarida jami 103 ta tarjimai hol (biografik maqola) mavjud bo‘lib, ularda umumiy hisobda 105 nafar so‘fiy haqida ma’lumot berilgan. Matndagi boblar soni (103 ta) va shayxlar soni (105 nafar) o‘rtasidagi farq ayrim fasllarda ikki nafar so‘fiy vakilining hayoti va qarashlari birlashtirilib, bitta umumiy bob ostida bayon etilgani bilan izohlanadi. Mazkur 105 nafar shayxning geografik taqsimoti quyidagicha: 59 nafari Xurosondan, 31 nafari Iroqdan, 8 nafari Shomdan, 5 nafari Misrdan, 1 nafari Makkadan va 1 nafari Qayruvondan (Mag‘rib) [4].

Sulamiy har bir shayx haqida qisqacha tarixiy ma’lumot berib, so‘ng uning irfoniy qarashlari yoki hikmatlaridan namunalar keltiradi. Shu jihatdan, asarda tarixnavislikka xos uslub ustunlik qiladi — badiiy tasvirdan ko‘ra ma’lumotni qayd etish va saqlash maqsadi yetakchi o‘rin tutadi. Muallif turli og‘zaki rivoyat va xabarlarni to‘plab, ularni birinchi marta yaxlit yozma tizimga soladi. Bunda manbani o‘zgartirish yoki qayta talqin qilish emas, balki mavjud xom materialni tartibga solish va muayyan qolipga keltirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, Sulamiy merosining keyingi tasavvufiy adabiyotga ta’siri beqiyosdir. Qushayriy, Ansoriy, Hujviriy, Attor kabi mualliflar turli darajada uning asariga tayanganlar. Hatto Abulqosim Qushayriyning o‘zi ham Sulamiydan hadis va tasavvuf ilmini o‘rgangan. Shu ma’noda, «Tabaqotu-s-so‘fiya» keyingi asrlarda yaratilgan tasavvufiy tazkiralar uchun muhim manba va vorisiylik zanjirining boshlang‘ich nuqtalaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

2. ANSORIY: FORSIY MUHITGA MOSLASHTIRISH VA IRFONIY SHARHLASH TAMOYILLARI

Sulamiy asos solgan tazkirachilik an’anasi keyingi asrda Abdulloh Ansoriy ijodida yangi bosqichga ko‘tarildi. Ansoriy Sulamiyning «Tabaqotu-s-so‘fiya» asarini o‘zining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati jarayonida asosiy manbalardan biri sifatida qabul qildi. Biroq u mazkur merosni shunchaki takrorlash bilan cheklanmay, uni yangi tarixiy va madaniy muhit talablariga mos ravishda qayta ishladi. Ansoriyning tazkirachilik sohasidagi xizmati, avvalo, Sulamiy jamlagan ma’lumotlarni forsiy muhitga olib kirishi va ularni yangi sharhlar bilan boyitishida namoyon bo‘ladi.

«Bahoriston» asarining birinchi ravzasida hamda «Nafahotu-l-uns» muqaddimasida keltirilishicha, Piri Hirot (ya’ni Ansoriy) har bir muridga avliyolardan hech bo‘lmasa bir so‘z o‘rganishni, agar buning imkoni bo‘lmasa, ularning ismlarini eslab qolishni vasiyat qilgan [15; 9]. Bu fikr tasavvuf muhitida vorisiylikning nafaqat ta’limot va g‘oyalar, balki ma’naviy xotira va silsilaviy bog‘liqlik orqali ham amal qilishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi olim Muhammad Sarvar Mavloiy o‘zi tashih va nashr etgan «Tabaqotu-s-sufiyya» nusxasining ilovalar (indekslar) qismida Xoja Abdulloh Ansoriy o‘z asarini yaratishda foydalangan va matn ichida nomlari tilga olingan barcha kitoblarni alohida ro‘yxat shaklida keltirgan. Bu Ansoriyning faqat Sulamiy ma’lumotlari bilan cheklanmay, boshqa muhim tasavvufiy manbalarga ham murojaat qilganini ko‘rsatadi. Masalan, unda Abumansur Isfahoniyning «Nahju-l-xos» (624–625-betlar), «G‘urbat» (624-bet), Abusaid Moliniyning «Arba’ini so‘fiyon» (520-bet) kabi asarlaridan unumli foydalanilgani va ular matnning aynan qaysi sahifalarida uchrashi aniq ko‘rsatib berilgan [5; 759-b.].

Ansoriy tasavvufiy atamalar, maqomot va ahvol, ilm, ma’rifat, tavhid, samo’ kabi masalalarni sharhlash orqali tazkiraning vazifasini kengaytirdi. Agar Sulamiy asarida asosan shayxlar haqidagi tarixiy ma’lumotlar va hikmatlar jamlangan bo‘lsa, Ansoriy asarida irfoniy tushunchalarning izohi, tarbiyaga oid mulohazalar va tasavvuf amaliyoti bilan bog‘liq ma’lumotlar ham muhim o‘rin egallaydi. Muhammad Sarvar Mavloiy nashrga tayyorlagan nusxadagi «Tabaqotu-s-sufiya» mundarijasiga e’tibor berilsa, quyidagi qismlarga duch kelish mumkin: «Taqsimi ulum» (alohida fasl); «Piri Hirotning ko‘z, diydor, ko‘ruvchi, boshlanish-intiho haqidagi so‘zlari» (Abusulaymon Doroniy zikrida); «Topish va ilm, topish va tanish, topish va diydor» (bir munojot davomida); «Tavhidga oid masalalar» (alohida fasl); «Dilxush, so‘z vaqti, hijob, haybat, qo‘rquv, futuvvat» (Abuabbos Surayj zikrida); «Samo’ haqida hikoyatlar» (Abubakr Tarsusiy zikri davomida); «Bir necha hikoyat» (Abuali Mug‘oziliy Asamm Bag‘dodiy zikridan keyin); «Tasavvuf ta’rifi» (Husayn Shammox zikri davomida) va «Tavhid ma’rifati haqida fasl» (alohida fasl). Ko‘rinib turibdiki, «Tabaqotu-s-sufiya»da «Kashfu-l-mahjub»dagidek tasavvufning har bir markaziy masalasini sharhlash uchun alohida boblar ajratilmagan. Aksincha, tasavvufning nazariy asoslari asar davomida turli o‘rinlarda, qisqa fasllar shaklida bayon etiladi.

Demak, Ansoriy ijodiy voris sifatida Sulamiy merosini saqlab qolish bilan birga, uni yangi mazmun bilan boyitdi. Uning asarida shayxlar hayoti, karomatlari va amallari haqida asliyatda mavjud bo‘lmagan qator rivoyat va hikoyalar ham uchraydi. Natijada tasavvuf tarixi haqida ma’lumot beruvchi manba bilan bir qatorda, muridlar tarbiyasiga xizmat qiluvchi yangi irfoniy asar vujudga keldi. Bu asar Abuhoshim So‘fiy zikri bilan boshlanib, unda 276 nafar tariqat ahli

haqida ma'lumot keltiriladi. Ansoriyning «Tabaqotu-s-sufiya»si o'z tarkibiy tuzilishi jihatidan ham avvalgi namunadan farqlanadi: u nafaqat o'zidan oldin yashab o'tgan shayxlarni, balki zamondoshlari va hamsuhbatlarini ham asariga kiritib, tazkirachilik an'anasini tarixiy yodgorlik doirasidan chiqarib, tirik, davom etayotgan ma'naviy silsila sifatida taqdim etdi.

Ansoriyning pozitsiyasi Sulamiy merosini qabul qilish, qayta ishlash va rivojlantirish tamoyillarining uyg'unlashuvi sifatida namoyon bo'ladi. U Sulamiy asaridagi asosiy ma'lumotlar va tasavvufiy qarashlarni qabul qilib, ularni arab tilidan fors tiliga o'tkazadi. Shu bilan birga, manbadagi materialni o'z davrining tasavvufiy-ta'limiy ehtiyojlariga moslab qayta ishlaydi, ayrim o'rinlarni sharh va hikoyatlar bilan kengaytiradi. Sulamiyning nomi va unga oid dastlabki ma'lumotlarni saqlab qolishi esa manba bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Natijada Ansoriy asarining Sulamiy merosiga munosabati oddiy tarjima yoki erkin bayon doirasida qolmay, manbani qabul qilish, uni ijodiy qayta ishlash hamda yangi mazmun va ma'no qatlamlari bilan rivojlantirishga asoslangan ijodiy vorisiylik sifatida namoyon bo'ladi.

3. JOMIY: SINTEZ QILISH, DALILLASHTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA TIZIMLI UMUMLASHTIRISH

Jomiy zimmasiga beqiyos boy va xilma-xil tasavvufiy tazkirachilik merosini o'z davri kitobxonlariga taqdim etish vazifasi tushgan edi. U ham asarini Abuhoshim So'fiy zikri bilan boshlab, Shayxulislom Ansoriy an'anasini davom ettirdi. Biroq Jomiy ham salafi singari asarni yaratish jarayonida turli manbalarga murojaat etish va ulardagi ma'lumotlarni qamrab olish zaruratini angladi.

Jomiyning «Nafahotu-l-uns» tazkirasi Abu Abdurahmon Sulamiyning (Nishopur) «Tabaqotu-s-sufiya», Abulqosim Qushayriyning (Nishopur) «Risola», Xoja Abdulloh Ansoriyning (Hirot) «Tabaqotu-s-sufiya», tasavvuf haqida fors tilida yaratilgan ilk asarlardan biri bo'lgan Ali ibn Usmon Hujviriyning (G'azni) «Kashfu-l-mahjub» hamda Fariduddin Attorning (Nishopur) «Tazkiratu-l-avliyo» kabi manbalarini tahlil qilish, ulardagi ma'lumotlarni qiyoslash va umumlashtirish asosida vujudga kelgan mukammal asardir. Mualliflarning tug'ilib o'sgan va ijod qilgan makonlariga nazar tashlansa, Jomiy murojaat qilgan manbalar asosan Xuroson va uning atrofidagi tasavvufiy-adabiy muhitda shakllangani ko'rinadi.

Mazkur manbalar qiyosiy o'rganilganda, ularning har biriga xos xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, Sulamiy asarida tarixiylik va xronologik bayon ustuvor bo'lsa, Ansoriyning «Tabaqotu-s-sufiya»sida muridlar tarbiyasi, shayxlar ta'limoti va tasavvufiy rusumlarni sharhlashga ko'proq e'tibor qaratiladi. Attor tazkirasida esa badiiy talqin va rivoyatchilik ruhi ustun bo'lib, bu holat, jumladan, Mansur Halloj zikrida tarixiy ma'lumotlardan ko'ra badiiy lavhalarning kengroq o'rin egallashida ko'rinadi. Hujviriy va Qushayriy asarlarida esa tasavvufiy ta'limotni nazariy jihatdan asoslash, tushunchalarni izohlash va fikrni dalillar vositasida mustahkamlashga intilish kuchli.

Jomiyning o'ziga xosligi ana shu turli uslub va tamoyillarga asoslangan manbalarni qiyosiy o'rganishi, ulardagi ma'lumotlarni o'zaro solishtirishi, zarur o'rinlarda bir-birini to'ldiruvchi jihatlarini ajratib olishi va yaxlit tizimga keltirishga intilishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, Jomiy ilmiy-adabiy xarakterdagi asar yaratdi. Uning asar yaratish tamoyili oddiy ma'lumotlarni jamlashdan iborat bo'lmay, turli manbalardagi ma'lumotlarni saralash, qiyoslash, dalillash va muayyan tizim asosida umumlashtirishga tayangan. Jomiy, ayniqsa, dalillash usuliga ko'proq murojaat qiladi.

Qayd etish lozimki, Hanbaliy mazhabiga mansub bo'lgan va o'z qarashlari tufayli bir necha bor shahridan badarg'a qilingan, muxoliflari bilan muntazam diniy-aqidaviy munozaralarga kirishgan Ansoriy asarlarida keskinlik va tanqidiy ruh ustuvorlik qiladi. Jomiy ijodida esa bunday keskin tarafkashlik va hukm chiqaruvchi yondashuv deyarli kuzatilmaydi. U «ahli sahv» va «ahli sukr» vakillariga nisbatan birdek xolis munosabatda bo'lib, ularning tasavvufiy tajribasini muayyan mazhab yoki qarash doirasida cheklab qo'ymaslikka intiladi.

«Nafahotu-l-uns»da Abdurahmon Jomiy tomonidan zikr etilgan shayx va so'fiylar soni 618 nafarni tashkil etadi. U salafi Ansoriy boshlagan an'anaga muvofiq, undan keyin yashagan va o'z zamonidagi shayxlarni ham asarda zikr etgan. Muallifning muhim yangiliklaridan yana biri shayx va so'fiylar qatoriga bir qator yirik shoirlarni ham qo'shganidir. Bu holat Jomiyning so'z va she'riyatga o'ziga xos munosabatda bo'lganidan dalolat beradi. Forsiy tilda qalam tebratgan Xoja Abdulloh Ansoriy, Abusaid Abulxayr kabi zotlar mahoratli shoir ham bo'lganlar. O'z navbatida, Sanoiy G'aznaviy, Fariduddin Attor va Jaloliddin Rumiy kabi siymolar so'fiyona mazmunni vasf etgan shoirlar sifatida shuhrat qozonganlar. Jomiy Xoja Yusuf Hamadoniyning muridi bo'lgan Sanoiydan, Shayx Majduddin Bag'dodiy va Mansur Hallojning uvaysiy muridi — Attordan, Shayx Abu Abdulloh Xafif «buq'ai sharifa»si «mujovirlari»dan bo'lgan Sa'diy Sheroziydan, Shayx Bahouddin Zakariyo suhbatiga erishgan Faxriddin Iroqiydan hamda Shayx Avhaduddin Kirmoniy «ashobi»dan bo'lgan Avhadiy Isfahoniydan she'riy parchalar keltirgan. Muallif, shuningdek, Afzaluddin Hoqoniy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Kamol Xo'jandiy va Hofiz Sheroziy kabi bugungi zamon kishilari faqat shoir sifatida taniydigan buyuk siymolarni ham tazkiraga kiritib, ularning tariqat ahli bilan aloqadorligi haqida muhim ma'lumotlar bergan.

Jomiy ushbu ijodkorlar, xususan, Hofiz Sheroziy haqida so'z yuritganda, uni «lisonu-l-g'ayb» va «tarjumonu-l-asror» (g'ayb sirlari tarjimoni) deb ulug'laydi. Buning boisi shundaki, mazkur shoirlar falsafiy-irfoniy mazmunlarni yuksak mahorat bilan vasf etganlar. Bundan tashqari, dastlabki qiyos shuni ko'rsatadiki, Jomiy «Bahoriston» asarida ham shoirlar uchun alohida bob ajratgan bo'lsa-da, ushbu ikki asarda uning shoirlarga bo'lgan munosabati sezilarli darajada farq qiladi. Aslida, Jomiy sof qofiyabozlik orqali shuhrat qozonish ilinjida yurgan yoki soxta shoirlikni da'vo qilgan kimsalarni ayovsiz tanqid ostiga oladi, ularning ustidan kuladi. Bunga doir hajviy epizodlar «Bahoriston» sahifalarida uchraydi. Biroq u «Nafahotu-l-uns» tazkirasiga kiritilgan ijodkorlarga butunlay boshqacha ko'z bilan qaraydi va ularni g'ayb sirlarini majoz vositasida bayon qilgan, ilohiy ma'rifatdan bahramand avliyolar va pirlar bilan bir safga qo'yadi. Ikki asar o'rtasidagi bu tafovut Jomiyning janr talablariga qarab o'z munosabatini ongli ravishda farqlay olganini, ya'ni uning ijodiy individualligi janriy o'z-o'zini boshqarish darajasida ham namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

Bularning barchasi — salaflar boshlagan tazkirachilik an'anasining davom ettirilishi, Ansoriydan keyin yashagan shayxlar hamda muallifning o'z zamondoshlarini zikr etishi, turli manbalardagi fikr va ma'lumotlarning qiyosiy tahlil qilinishi, shuningdek, yirik shoirlarning shayx va so'fiylar qatoriga kiritilishi — «Nafahotu-l-uns»ning vorisiylik va

ISSN 3060-5059 (Online)

yangilanish tamoyillari uyg‘unligida shakllangan asar ekanini ko‘rsatadi.

4. NAVOIY: AN’ANANI TURKIY ADABIY MUHITGA KO‘CHIRISH, IJODIY TRANSFORMATSIYA VA MILLIY MOSLASHTIRISH

Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimu-l-futuvvat» asarini Abdurahmon Jomiyning «Nafahotu-l-uns min hazaroti-l-quds» tazkirasi bilan qiyoslashda, avvalo, ikki asar o‘rtasidagi vorisiylik munosabatini aniq belgilab olish muhim. Bu o‘rinda N. Konradning adabiy-madaniy an’analarning bir adabiyotdan boshqasiga o‘tishida «uzatuvchi» vositalar sifatida shaxslar, guruhlar va kitoblarning ahamiyati haqidagi fikrlari metodologik jihatdan muayyan ahamiyat kasb etadi [14]. Zero, irfoniy meros sifatida baholanayotgan asarlar muayyan adabiy muhit, ijodkorlar va matnlar vositasida avloddan avlodga o‘tib, yangi tarixiy-madaniy sharoitda qayta talqin qilingan. Bu nuqtai nazardan, Alisher Navoiyning forsiy va turkiy adabiy muhitlarni bog‘lab turgan zullisonayn ijodkor sifatidagi o‘rni alohida e’tiborga loyiq.

Navoiyning sa’y-harakatlari tufayli forsiy adabiyotdan turkiy adabiyotga tariqat ahli va mashoyixlarga bag‘ishlangan tazkirachilik an’anasi olib o‘tildi. U, shuningdek, mazkur adabiyotdan turkiy adabiyotga Islom payg‘ambari (s.a.v.) hadislari va islom ulamolarining hikmatli so‘zlarini she’riy sharhlash an’anasini olib kirdi. Shu ma’noda, «Nasoyimu-l-muhabbat»da adabiy «ota» — Jomiyning o‘zi, uning zamondoshlari hamda Jomiy asariga kiritilgan keyingi avlod mashoyixi haqidagi ma’lumotlarni turkiy kitobxonga yetkazish g‘oyasining Jomiydan Navoiyga o‘tganini ko‘rish mumkin. Biroq Navoiy oldida Jomiynikidan farqli vazifa turgan edi: u, asosan, forsiy tilda yaratilgan, «alfozi forsiy», «arabiyga payvasta» va «iborati ishorat ahli tiliga vobasta» bo‘lgan asarni turkiy kitobxon uchun tushunarli va qabul qilishga qulay shaklda qayta yaratishi lozim edi. Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, forsiy tilni bilmagani sababli «ul alfozga vuquf qillatidin ul fayzlardin mahrum va bu haqoyiqning daqoyiqi ularga noma’lum» bo‘lgan kishilar uchun mazkur ma’naviy merosni turkiy tilda bayon qilish zarurati uning asosiy maqsadlaridan biri edi [10; 91-b.].

Shu sababli Navoiy «Nafahotu-l-uns»dagi mazmunni turkiy tilga mexanik tarzda ko‘chirish bilan cheklanmaydi. U muqaddimani ham turkiy kitobxonga mos tarzda qayta bayon qiladi, so‘fiylik tarixini, mashoyixlarning hayoti va qarashlarini turkiy adabiy tafakkur imkoniyatlaridan kelib chiqib ifodalaydi. Navoiyning Naqshbandiya tariqati muhitida shakllangan ijodkor sifatida muqaddimada so‘fiylarning kasb-koriga ham alohida e’tibor qaratishi — Shayx Muhammad Sakkok (pichoqchi), Ibrohim Ojuriy (g‘isht quyuvchi), Shayx Bannon (hammol), Shayx Abulhasan (najjor) va boshqalarni misol qilib keltirishi ham uning insonning ma’naviy kamoloti bilan kundalik kasb-kori o‘rtasidagi munosabatga e’tibor berganini ko‘rsatadi.

«Nasoyimu-l-muhabbat»ning kompozitsion qurilishida ham Jomiy va Attor bilan munosabat alohida ahamiyatga ega. Navoiy asari Ansoriy va Jomiy tazkiralaridan farqli ravishda Shayx Uvays Qaraniy zikri bilan boshlanadi. Asarni aynan Uvays Qaraniy zikri bilan boshlash tartibi Fariduddin Attor Nishopuriyning «Tazkiratu-l-avliyo» asariga borib taqaladi [11]. Shu jihatdan, Navoiy asar boshlanishida Attor an’anasiga ergashgan bo‘lsa, uning asosiy mazmuni va tarkibiy qurilishida Jomiyning «Nafahotu-l-uns» asariga tayangan.

Navoiy tazkirani tuzish jarayonida qaysi manbalardan va qay tarzda foydalanganini o‘zi ham aniq ko‘rsatadi. U «Tazkiratu-l-avliyo»dan «Nafahotu-l-uns»ga kiritilmagan ayrim kibor mashoyixni olib, ularning har birini «munosib mahalda» asarga kiritganini qayd etadi. Hind mashoyixi zikri «Nafahotu-l-uns»da oz ekanini ta’kidlab, ularni «mumkin bor tilab, topib», Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganjdan keyingi mashoyixgacha asarga «ilhoq qilganini» aytadi. Turk mashoyixi zikri ham ozroq ekanini qayd etar ekan, Navoiy Xoja Ahmad Yassaviydan «bu zamongacha ulcha mumkin bor tilab, topib», ularning asarlari, ba’zi holatlari va so‘zlarini munosib o‘rinlarda darj qilganini ta’kidlaydi [10; 91-b.].

Navoiyning mazkur qaydida yana bir muhim jihatga e’tibor qaratiladi: u «Hazrat Maxdumi n. m. n.ning oti va muosiru musohib mashoyix zikri» «ul mutabarrak kitobda yo‘q erdi» deydi. Bu ma’lumot «Nafahotu-l-uns»da Jomiyning o‘z zamondoshi va musohibi bo‘lgan ayrim mashoyixlar zikri mavjud bo‘lmaganini, Navoiy esa ularni «Nasoyimu-l-muhabbat»ga kiritganini ko‘rsatadi. Ansoriy va Jomiy ham asarlarida xuddi shunday yo‘l tutganlar. Shuningdek, Navoiy ayrim avliyoulloh zikriga oid tafsilotlarni «zamon ahli» uchun zarur emasligi va asarni cho‘zib yuborishdan xavfsiragani sababli tark etganini aytadi. Demak, u manbalardagi materialni tanlashda ham muayyan mezonlarga amal qilgan. Shunday qilib, «Nasoyimu-l-muhabbat»ning manbaviy asosini shartli ravishda ikki asosiy qatlamga ajratish mumkin: bir tomonda Jomiyning «Nafahotu-l-uns»i — asosiy va yetakchi manba, ikkinchi tomonda Attorning «Tazkiratu-l-avliyo»si hamda hind va turk mashoyixiga oid boshqa manbalar — Jomiy asarida qamrab olinmagan yoki yetarlicha yoritilmagan ma’lumotlarni to‘ldiruvchi manbalar.

Mazkur ijodiy vorisiylik tamoyillari Navoiyning Jomiy merosiga munosabatida ham namoyon bo‘ladi. Avvalo, Navoiy Jomiy asarida turkiy kitobxonga yetkazilishi zarur bo‘lgan qimmatli ma’no va tajriba mavjudligini anglaydi. Uning Jomiyni ustoz va «ota» sifatida e’tirof etishi ana shu munosabatning ma’naviy asosini tashkil etadi. Shu ma’noda, Jomiy merosini qabul qilish faqat manbaga murojaat etish emas, balki uning adabiy-ilmiy qimmatini tan olish bilan ham bog‘liq.

Qayta ishlash jarayonida Navoiy Jomiy matnidagi mazmunni o‘zlashtirib, uni yangi til va adabiy muhit talablariga moslashtiradi. Bu, ayniqsa, asar muqaddimasida yaqqol ko‘rinadi: Navoiy Jomiy fikrlarini aynan takrorlamay, ularning mohiyatini o‘z so‘zlari va o‘ziga xos bayon uslubi orqali qayta ifodalaydi. Forsiy matndagi tasavvufiy mazmunning turkiy tilga ko‘chirilishi bilan bir qatorda, uning turkiy adabiy tafakkur va kitobxonlik muhitiga mos tarzda qayta talqin qilinishi ham mazkur jarayonning muhim jihatidir.

Rivojlantirish bosqichida esa Navoiy Jomiy asaridagi materialni takrorlash bilan cheklanmay, uni yangi ma’lumotlar bilan kengaytiradi. Xususan, Jomiyda mavjud bo‘lmagan hind va turkiy mashoyixlar, shuningdek, Jomiyning o‘z zamondoshlari haqidagi ma’lumotlarni kiritishi asarning mazmun doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Shu bilan birga, Jomiy asarida mavjud bo‘lgan zikrlarni turkiy tilda qayta bayon qilib, ularni saqlab qolishi ham manbaga vorislik munosabatining muhim ko‘rinishidir.

ISSN 3060-5059 (Online)

Demak, Navoiyning Jomiy merosiga munosabati manbani qabul qilish, uni ijodiy qayta ishlash hamda yangi ma'lumot va ma'no qatlamlari bilan rivojlantirish jarayonlarining uzviy birligida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan «Nasoyimu-l-muhabbat»ni oddiy tarjima yoki erkin bayon sifatida emas, balki ijodiy vorisiylik asosida yaratilgan mustaqil badiiy-ilmiy asar sifatida baholash mumkin. Ayrim tarjimai hollarning tasodifiy tanlov asosida qiyoslanishi ham shuni tasdiqlaydi: Abuhoshim So'fiy va Zunnun Misriy zikrlari so'zma-so'z tarjima qilingan; Boyazid Bastomiy zikri qisqartirilib, alohida jumlalar tanlab olingan holda tarjima qilingan; Shibliy zikri tarjimasida ham xuddi shunday yo'l tutilgan; Sulamiy va Ansoriydan keltirilgan iqtiboslar, Junaydning so'zlari aynan tarjima qilingan; Junayd Bag'dodiy zikri qisqartirilgan holda so'zma-so'z tarjima qilingan; Mansur Halloj zikri so'zma-so'z tarjima qilingan; Sanoiy zikri tarjimasida asliyatga sodiq qolingan, she'riy parchalar tarjimasiz keltirilgan va ayrim qismlar qisqartirilgan. Attor zikri ham Jomiydagi matn bilan qariyb bir xil bo'lib, Navoiy tomonidan faqat beshta jumla qo'shilgan. Nizomiy zikri tarjimasida ham xuddi shunday yo'l tutilgan va uning «suluk ayyomida arba'in» chiqargani haqidagi sharh bir jumla bilan ilova qilingan. Xusrav Dehlaviy zikri esa Jomiydagi matn bilan bir xil.

Keltirilgan namunalar Navoiy manba matniga bir xil usulda yondashmaganini ko'rsatadi: ayrim zikrlar qisqartirilgan, boshqalari esa mazmunan to'liqroq saqlangan. Biroq Halloj zikrining so'zma-so'z tarjima qilingani haqidagi kuzatish mashhur siymolar zikri doimo ixchamlashtirilgan, degan umumiy xulosaga kelishga imkon bermaydi. Shoir-oriflarga munosabat haqidagi xulosa ham mazkur namunalar doirasidagi dastlabki talqin sifatida qabul qilinishi lozim.

Demak, eng muhimi shundaki, Navoiy mazkur asar orqali avval forsiy adabiyot doirasida shakllangan vorisiylik zanjirini turkiy adabiy muhitga olib o'tadi. Uning xizmati ikki muhim jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, mavjud an'anani yangi — turkiy til va adabiy-madaniy muhitga moslashtirish; ikkinchidan, forsiy adabiyotda shakllangan ijodiy vorisiylik an'anasini turkiy adabiyotga ko'chirish va uning keyingi taraqqiyoti uchun zamin yaratish. Shu ma'noda, Navoiy «Nasoyimu-l-muhabbat» orqali mavjud an'ananing davomchisi bo'lish bilan birga, uning yangi adabiy muhitdagi faol transformatori ham bo'lgan.

5. DINIY PESHVOLARNI ZIKR ETISH AN'ANASI: GENEALOGIK-MAFKURAVIY QATLAM

Navoiy asarining Attor tazkirasi bilan mushtarak jihatlaridan yana biri sunniy mazhablar imomlarining so'fiylar qatorida zikr etilishidir. Tabaqot shaklida tuzilgan tazkiralarda, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, bunday yondashuv mavjud emas. Biroq mazkur an'anaga ilk bor Attor murojaat qilgan, deb bo'lmaydi. Sunniy mazhablar imomlari — Abu Hanifa, Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy, Molik ibn Anas, Ahmad ibn Hanbal hamda Imom Ja'far as-Sodiq kabi nufuzli diniy shaxslarni tasavvufiy-biografik asarlarga kiritish an'anasi «Tazkiratu-l-avliyo»dan ancha oldin yaratilgan asarlarda ham ko'zga tashlanadi.

Bu jihatdan Abu Nuaym al-Isfahoniyning «Hilyat al-avliyo va tabaqot al-asfiyo» asari alohida ahamiyatga ega. J. Mujaddadiyning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, Abu Nuaymning mazkur asari Sulamiyning «Tabaqot as-sufiyya»sidan keyin yaratilgan bo'lib, unda Sulamiy asaridagi 103 ta tarjimai holdan 76 tasi qamrab olingan. Shu bilan birga, Abu Nuaym tasavvufiy-biografik an'ananing qamrovini sezilarli darajada kengaytirib, asarida taxminan 650 ta tarjimai holni jamlagan. Unda nafaqat tasavvuf ahli sifatida tanilgan shaxslar, balki sahobalar, xalifalar, Ahli bayt vakillari, hadis va kalom ulamolari, shuningdek, fiqh maktablari vakillari ham qamrab olingan. Shu tariqa, Abu Nuaym tasavvufiy tazkirachilik doirasini kengaytirish bilan birga, diniy ilm, zuhd va ma'naviy kamolot o'rtasidagi uzviylikni ko'rsatish tamoyilini ham mustahkamlagan.

Abulqosim Qushayriyning «Ar-Risola»sida ham tasavvufning ahli sunna va shariat doirasidagi mavqeyini asoslashga intilish yaqqol ko'rinadi. Asarda faqihlar va diniy ulamolarning fikrlari tasavvufiy qarashlarni sharhlash va asoslash uchun jalb qilinadi. Bu holat tasavvufni fiqh va sunniy aqidaga zid bo'lgan alohida diniy oqim emas, balki islomiy ilm va ma'naviy tarbiya an'anasi doirasidagi hodisa sifatida taqdim etishga xizmat qilgan.

Ali ibn Usmon al-Hujviriyning «Kashf al-mahjub» asarida esa sunniy mazhablar imomlarining so'fiylar qatorida zikr etilishining forsiy tildagi bayonini uchratamiz. Hujviriy faqihlar, muhaddislar va Ahli baytga mansub ulug' shaxslarni tasavvufning ma'naviy silsilasi bilan bog'liq holda talqin qiladi. Jumladan, «Kashf al-mahjub»da Imom Ja'far as-Sodiq, Abu Hanifa, Imom Shofe'iy va Imom Ahmad ibn Hanbal haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi mazkur an'ananing Attordan ancha oldin shakllanganini ko'rsatadi [12; 94, 110, 136, 138-b.].

Shu nuqtai nazardan, tazkiralarda diniy peshvolarni so'fiylar qatorida zikr etishni faqat «falon shaxsni so'fiy deb hisoblash» masalasi sifatida tushunish bir tomonlama yondashuv bo'ladi. Bunday yondashuv, avvalo, tasavvufning diniy asoslarini ko'rsatish, uning islomiy ilm va ma'naviy tarbiya an'analari bilan uzviy aloqasini ta'kidlash vazifasini bajargan. Fiqh, hadis va boshqa diniy ilmlarda yuksak mavqega ega bo'lgan shaxslarni irfoniy silsila bilan bog'lash orqali tazkiranavislar tasavvufning shariatdan tashqari yoki unga muqobil hodisa emasligini ta'kidlaganlar. Shuningdek, bu usul Payg'ambar (s.a.v.), sahobalar, Ahli bayt, zohidlar va ulamolar orqali davom etgan ma'naviy merosning uzluksizligini ifodalash imkonini bergan. Shu ma'noda, Abu Hanifa yoki Imom Ja'far as-Sodiqning tazkiralarda tilga olinishini ularni zamonaviy ma'nodagi «so'fiy tariqat shayxi» sifatida tasniflash emas, balki tasavvufga shariat doirasida legitimlik berish, ya'ni uni islomiy ilm va fiqh an'anasi bilan uzviy bog'liq, unga zid bo'lmagan hodisa sifatida ko'rsatish maqsadi bilan izohlash to'g'riroq bo'ladi.

Attor «Tazkiratu-l-avliyo» asarida ushbu an'anani davom ettirib, Imom Ja'far as-Sodiq zikrini keltiradi, Hasan Basriyning «firqani Ali (a.)dan olgani», Junayd Bag'dodiyning esa Ali (a.)ni «o'z shayxi» deb bilgani haqida naql qiladi [11; 398-b.]. Keyinchalik Jomiy va Navoiy ham mazkur irfoniy-genealogik yondashuvni davom ettiradilar. Masalan, «Nafahotu-l-uns»da Shayx Sa'iduddin Farg'oniy zikri munosabati bilan Shayx Majduddin Bag'dodiyning «Tuhfatu-l-barara» asaridan iqtibos keltirilib, xirqa nisbatining Payg'ambar (s.a.v.) va Ali (a.) orqali uzluksiz davom etishi haqida so'z yuritiladi [9; 690-b.]. Navoiy ham ushbu ma'lumotni qisqartirilgan holda «Nasoyimu-l-muhabbat»ga kiritadi [10; 422-b.]. Biroq Jomiy asarida, yuqorida ta'kidlanganidek, boshqa imomlarning alohida zikrlari mavjud emas.

ISSN 3060-5059 (Online)

Biroq mazkur yondashuvni tarixiy voqelikning aynan aks etishi sifatida qabul qilish qiyin. Sunniy mazhab imomlari, avvalo, fiqhiy va shar'iy ilmlar namoyandalari sifatida tanilgan bo'lsalar, tasavvuf ahli ko'proq islomning ma'naviy va irfoniy jihatlariga e'tibor qaratgan. Shuning uchun ularning so'fiylar qatorida zikr etilishi tarixiy va mazhabiy nuqtai nazardan alohida izoh talab qiladi. Ayrim shia ulamolarining tasavvuf va so'fiylikka nisbatan tanqidiy munosabati ham ma'lum [17]. Shu bilan birga, sunniy muhitning o'zida ham tasavvufga munosabat bir xil bo'lmagan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Tasavvuf haqida tasavvur» asarida ham rasmiy diniy qarashlar bilan tasavvuf ahlining qarashlari o'rtasidagi ayrim tafovutlarga ishora qilinadi. Demak, diniy peshvolarning so'fiylar qatorida zikr etilishini tasavvufiy tazkirachilikning o'ziga xos irfoniy-genealogik modeli sifatida baholash to'g'riroqdir. Bu model tarixiy faktning bevosita ifodasi emas, balki ma'naviy silsilani mustahkamlashga xizmat qiluvchi adabiy-mafkuraviy vosita sifatida qaralishi lozim.

Navoiyning ushbu zanjirdagi o'rni alohida ahamiyatga ega: u forsiy adabiyotda shakllangan vorisiylik an'anasini turkiy adabiy muhitga ko'chirib, shu bilan birga, uning faol transformatoriga aylandi. Mazkur maqolada keltirilgan dastlabki kuzatishlar — Navoiyning mashhur siymolar zikrida ixchamlashtirishga, shoir-oriflar zikrida esa asliyatga sodiqlikka moyilligi — aynan shu yo'nalishdagi tadqiqot bo'shlig'ini to'ldirishga qaratilgan dastlabki qadam sifatida qaralishi mumkin.

Diniy peshvolarni tazkiralarga kiritish tasavvufni islomiy ilm va ma'naviy tarbiya an'analari bilan bog'liq holda talqin etishga xizmat qiladi. Biroq ushbu tamoyil barcha mualliflarda bir xil darajada namoyon bo'lgan, degan xulosa alohida matniy dalillarni talab etadi.

Tadqiqotning ko'lami shundan iboratki, tarjimai hollarning so'zma-so'z yoki qisqartirilgan tarjima ekanligiga oid xulosalar tasodifiy tanlov asosida olingan o'nga yaqin namunaga tayanadi. To'liq statistik xulosa chiqarish uchun barcha 618 (yoki 770) ta tarjimai holning matniy qiyosi talab etiladi. Bundan tashqari, Abu Nuaym al-Isfahoniyning «Hilyat al-avliyo»si bilan Sulamiy asari o'rtasidagi matniy qiyos (76/103 tarjimai hol mosligi) faqat statistik darajada qayd etildi. Uning matniy xususiyatlari alohida tadqiqotni talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda, ayniqsa, «Nafahotu-l-uns» va «Nasoyimu-l-muhabbat»ning barcha umumiy tarjimai hollarini qamrab oluvchi to'liq korpusli qiyosiy tahlilni amalga oshirish, shuningdek, ushbu yondashuvni boshqa tarjima-vorisiylik holatlariga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

NATIJALAR

Tahlil qilingan materiallarda ijodiy vorisiylikning o'zaro bog'liq uchta ko'rinishi ajratildi: salaf matni va uning ma'naviy nufuzini qabul qilish; materialning tili, hajmi va tuzilishini qayta ishlash; yangi shaxslar, sharhlar va tarixiy ma'lumotlar hisobiga mazmunni rivojlantirish. Bular qat'iy ketma-ketlikdagi alohida davrlar emas, balki bitta asarda birgalikda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan ijodiy amallardir.

Sulamiy–Ansoriy munosabatida til almashishi va irfoniy sharhlarning kengayishi, Ansoriy–Jomiy munosabatida ko'p manbali umumlashtirish, Jomiy–Navoiy munosabatida esa turkiy bayon, tanlab tarjima qilish va yangi biografik materiallarni kiritish yetakchi belgilar sifatida namoyon bo'ldi.

Navoiy muqaddimasidagi manba tanlashga oid izohlar uning tarjima va to'ldirish ishlarini ongli mezonlar asosida amalga oshirganini ko'rsatadi. Ayrim zikrlarning qiyosi turlicha qayta ishlash usullarini aniqlashga imkon berdi. Biroq ushbu kuzatishlar barcha zikrlarga tatbiq etiladigan statistik qonuniyat sifatida baholanmadi.

Biografik qamrovning ortishi mazmuniy kengayish ko'rsatkichidir. Biroq Sulamiy asaridagi 103 ta biografik maqola bilan 105 nafar shaxs haqidagi ma'lumotni farqlash zarur. Maqolalar sonini shaxslar soni bilan bevosita tenglashtirish mumkin emas.

XULOSA

Tasavvufiy tazkirachilik an'anasidagi ijodiy vorisiylik manbaga sodiqlik bilan ijodiy yangilanishning o'zaro uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Sulamiydan Ansoriygacha bo'lgan jarayonda tillararo tarjima (arabchadan forschaga) va mazmuniy kengayish, Ansoriydan Jomiygacha bo'lgan jarayonda ko'p manbali sintez va uslubiy uyg'unlashtirish, Jomiydan Navoiygacha bo'lgan jarayonda esa tillararo tarjima (forschadan turkiyga) va madaniyatlararo transformatsiya kuzatiladi. Qamrovning kengayishini baholashda biografik maqolalar va zikr etilgan shaxslar soni alohida hisobga olinishi lozim.

Nazariy jihatdan ushbu zanjirni D. Blagoy va A. Bushmin taklif etgan adabiy vorisiylikning dialektik modeli («saqlash + tanqidiy qayta ishlash») asosida izohlash mumkin: har bir muallif manbani avvalo qabul qiladi, so'ng uni o'z davrining ehtiyojlariga moslab qayta ishlaydi va nihoyat, yangi ma'lumot hamda mazmun qatlamlari bilan rivojlantiradi. Tasavvufiy tazkirachilikda voris o'zini salafiga nisbatan raqobatchi emas, balki mas'uliyatli davomchi sifatida ko'radi. Bu esa merosga munosabatning tahlil etilgan asarlarda kuzatiladigan xususiyatidir.

Shu jihatdan, ijodiy vorisiylikning asosiy belgisi avvalgi merosni saqlash bilan birga, uni yangi davr, yangi til, yangi kitobxon va yangi ijodiy maqsadlarga mos ravishda qayta yaratishdan iborat ekanligi ayon bo'ladi. Sulamiy, Ansoriy, Jomiy va Navoiy asarlaridagi farqlar aynan shu jarayonda har bir muallifning ijodiy individualligi namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarni «Nafahotu-l-uns» va «Nasoyimu-l-muhabbat»ning to'liq qiyosiy tahliliga, shuningdek, mazkur nazariy modellarni Hirot adabiy muhitidagi boshqa vorisiylik holatlariga tatbiq etishga bag'ishlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Благой Д. Диалектика литературной преемственности // Вопросы литературы. – 1962. – № 2. – С. 94–112.
2. Бушмин А. С. Преемственность в развитии литературы. – 2-е изд. – Ленинград: Художественная литература, 1978. – 224 с.
3. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. – 9-jild: Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 6–290.

4. Mojaddedi J. A. The Biographical Tradition in Sufism: The Ṭabaqāt Genre from Al-Sulamī to Jāmī. – London; New York: Routledge, 2013. – 230 p. – URL: https://www.routledge.com/The-Biographical-Tradition-in-Sufism-The-Tabaqat-Genre-from-al-Sulami-/Mojaddedi/p/book/9780700713592.
5. خواجه عبدالله بن محمد انصاری .طبقات الصوفیه /تصحیح محمد سرور مولایی .– تهران :توس، ۱۳۶۲ .– ۱۱۸۰ ص.
6. شمشیرگرها محبوبه، بزرگ بیگدلی سعید، ابوالقاسمی محسن .بررسی تأثیر زبان عربی بر طبقات الصوفیه انصاری //جستارهای زبانی .– ۱۳۹۳ .– دوره ۵ .شماره ۳ .– ص ۱۵۱–۱۹۳.
7. Ochilov E. Alisher Navoiyning tarjimonlik mahorati // Tarjimashunoslar forumi – 2023: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2023-yil 14-dekabr). – Toshkent: TDSHU, 2023. – B. 36–45.
8. Ramazonov N. «Nasoyim»ning o‘ziga xos xususiyatlariga doir // Navoiyning ijod olami. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 157–182.
9. Мавлоно Абдураҳмони Ҷомӣ. Нафаҳоту-л-унс мин ҳазароти-л-қудс. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи фарҳанги форсӣ-тоҷикии Сафорати ҶИЭ дар Тоҷикистон, 2013. – 865 с.
10. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. – 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 88–512. – URL: https://library.tiiame.uz/ru/resources/01EY01M5AB06AE0XXPXP0W701D.
11. Фаридуддин Аттори Нишопурӣ. Тазкирату-л-авлиё. – Хуҷанд: Ношир, 2009. – 474 с.
12. Al-Hujwiri A. B. U. Al-Jullabi. The Revelation of Mystery (Kashf Al-Mahjub): The Oldest Persian Treatise on Sufism / transl. by Lieutenant Colonel (R) Muhammad Ashraf Javed. – Lahore, Pakistan: Zahid Javed Rana, Abid Javed Rana. – 487 p.
13. Подобрий А. В. Преемственность — традиция — диалог — новаторство (к вопросу о литературной эволюции) // Вестник КГПИ: научно-методический журнал. – 2013. – № 2 (30). – С. 49–53.
14. Конрад Н. И. О литературном «посреднике» // Запад и Восток: статьи. – Москва: Наука, 1966. – С. 348–365.
15. Абдураҳмони Ҷомӣ. Баҳористон. – Душанбе: Маориф ва фарҳанг, 2008. – 139 с.
16. عبدالرحمن جامی .لوایح // (رباعیات شرح و لوایح ،لوامع) تصوف در رساله سه / .افشار ایرج مقدمه با – .تهران :منوچهری ،۱۳۶۰ .ص – .۱۸۹.
17. علی محمد صابری .سمات مجله // شیعه متقدم عالمان و السلام علیهم بیت اهل کلام در صوفیه و تصوف نقد .– ۱۳۹۱ .۸ شماره – .ص ۱۶۵–۱۴۲.